

“ESKI SOAT” HIKOYASIDA TASVIR VA TALQIN JOZIBASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12501055>

Matkurbanova Oygul Mamatsalayevna

filologiya fanlari bo'yicha (Phd) tayanch doktoranti

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

E-mail: matkurbonova93@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada yozuvchi Qamchibek Kenjaning “Eski soat” hikoyasida tavsir va talqin jozibasi tadqiq etilgan. Hikoyaning mohiyati, yozuvchi mahorati, obrazlar haqida so'z boradi. Yozuvchi asarlarida xarakter tabiati, inson ruhiyatini, ayniqsa, bolalar ruhiyatining nozik qirralarini ochishga e'tibor qaratgan. Qamchibek Kenja bola obrazini yaratar ekan, bolalarga xos bo'lgan ruhiy kechinmalar, hissiyotlar, ularni larzaga solgan hodisa va voqealarni bola tilidan ifoda etadi. Bu esa hikoyaning o'qirmon uchun yanada jonli va ta'sirli bo'lishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar

hikoya, badiiy asar mazmuni va g'oyasi, tahlil va talqin, obraz, yozuvchi mahorati.

THE CHARM OF IMAGERY AND INTERPRETATION IN THE STORY OF “THE OLD CLOCK”

Abstract

In this article, the appeal of description and interpretation in the story “Old Clock” by the writer Kamchibek Kenja is studied. It talks about the essence of the story, the writer's skill, and the characters. In his works, the writer focused on revealing the nature of character, human psyche, especially the delicate aspects of children's psyche. When Kamchibek Kenja creates the image of a child, he expresses the mental experiences, emotions, events and events that shook them in the language of children. This ensures that the story will be more alive and effective for the reader.

Key words

story, content and idea of an artistic work, analysis and interpretation, image, writing skills.

Bola – borliqdagi eng aziz, suyuqli va beg'ubor yaratilgan. U xuddi nihol kabidir. Uni qanday parvarishlasangiz, shunga yarasha unib o'sadi. Niholning ko'rkam va qaddi raso bo'lishi, kun kelib o'z vazifasini bekamiko's bajara olishi

uchun dehqonning mehri-yu mehnati bilan birga tabiatning ham ta'siri zarur bo'ladi. Bundan ayon bo'ladiki, bolaning har jihatdan yetuk bo'lib rivojlanishida nafaqat oila, balki atrof-muhitning ham o'rni beqiyosdir. Aynan biz tahlilga olgan yozuvchi Qamchibek Kenjaning "Eski soat"¹⁰⁴ hikoyasida oiladan tashqaridagi muhit bola tarbiyasiga nechog'lik ta'sir etishi yaqqol namoyon bo'ladi.

Bilamizki, adabiyotshunoslikda tahlil va talqin tushunchalari juda keng qo'llanilib, ular badiiy asarni tushunish jarayonining bir-biriga bog'liq jihatlaridir. Badiiy asarni tushunish, uning mazmun-mohiyatini anglash jarayonida tahlil va talqin muhim ahamiyatga ega. Quyida Qamchibek Kenjaning "Eski soat" hikoyasi tahlili orqali ijodkorning hikoyaga yuklagan ma'no va mazmunni, g'oya va maqsadini aniqlashga harakat qilamiz. Hikoya bola - Avaz tilidan so'zlanadi. Aks etgan syujet voqealari o'tgan zamonda bo'lib o'tadi. Hikoyada asosiy qahramon maktab yoshidagi Avaz bo'lib, uni begona avtomobildan pul va eski soat olib qochishga undagan o'rtog'i Tuyg'un va ona obrazi ishtirok etadi. Yozuvchi hikoyada jamiyatimizdagi mavjud bo'lgan dolzarb mavzuni qalamga oladi. Ya'ni o'g'irliqcha orttirilgan narsaning yuki naqadar og'ir bo'lishi Avazning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari orqali ochib beriladi.

Hikoyani tahlil etar ekanmiz, avvalo, uning sarlavhasiga diqqat qaratishni joiz topdik. Chunki asarga qo'yilgan nom asar badiiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Asar sarlavhasi ma'no ifodalovchi markazdir. T. Boboyevning "Adabiyotshunoslik asoslari" darsligida: "Asar sarlavhasi - badiiy asar arxitektonikasi tashkil qiluvchilik rolini o'ynaydi. Ko'p hollarda asar sarlavhasi uning mazmuni bilan uyg'unlashib ketadi"¹⁰⁵, - kabi fikrlar bildiriladi. Shuningdek, har qanday asar sarlavhasi bir yoki bir necha so'z bilan ifodalanishi va yuzlab sahifalarga sochilgan mazmunni o'zida aniq jamlay olishi, nomlanishidayoq o'quvchini o'ziga jalb qila olishi kerak. Qamchibek Kenja ijodida ham aynan sarlavha tanlay olish mahorati yuksak darajada namoyon bo'ladi.

Xo'sh, nega "Eski soat". Soat - dunyodagi eng tinim bilmas, qiyomatgacha to'xtamas bo'lgan vaqtni ko'rsatkichlarda namoyon qiladigan, inson qo'li bilan yaratilgan oddiy jihozdir. Ammo shu oddiy jihoz hikoyadagi asosiy detall bo'lib xizmat qiladi. U hikoyada: "Soat eski, ko'rimsiz, qora lattaga o'xshash bog'i uzilay-uzilay deb turibdi", - deya tasvirlanadi. Soat eski bo'lsa-da, yangi bo'lsa-da baribir inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Biz ushbu sarlavhani tor va keng ma'noda tafakkur etishni tadbiq etdik.

¹⁰⁴ Qamchibek Kenja. Bir kecha-ming kecha. T., "O'zbekiston", 2018. 346-bet

¹⁰⁵ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. -T., "O'zbekiston", 2000. 145-bet

Ya'ni tor ma'noda izohlasak, hikoya aynan bevosita soat bilan bog'liq ekanligini ko'rsatish uchun, keng ma'noda esa ramziy ma'no tashish uchun xizmat qiladi. Bunda soat hayot davomiyligi va unda yashovchi har avlod orasidan o'g'irlik kabi turli illatlar yoki nomaqbul qilmishlar qiluvchi insonlar yetishib chiqishini ko'zda tutadi. Bunday illatlar ildizi eski bo'lsa-da, unga duchor bo'lganlar yillar osha yangillanib boraveradi.

Hikoya kun rosa tikkaga kelgan, saraton jazirama ayni avjiga chiqqan payti, bolalarning maza qilib sholizorni oralab oqadigan Qorasuvning yoyilmasida cho'milayotgani tasviridan boshlanadi. Aynan "sholizor" va keyingi o'rinlarda qayd etilgan "paxtazor" so'zlaridan anglashiladiki, hikoya sodir bo'ladigan joy qishloq hududidir. Yozuvchi yozning gashtini chiqarayotgan mahal Avaz va Tuyg'unning begona "Volga" rusumli avtobomilni ko'rib qolib, uning ichidan eski soat va pullarni o'g'irlashlagani, o'ljani o'zaro taqsimlashgani, natijada Avazga soat tegib, uni oyisidan bekitolmay qilgan qilmishi uchun rosa dakki yegani va oyisining buyrug'iga asosan soatni joyiga qo'yib kelishgacha bo'lgan qiziqarli voqealarni qalamga oladi.

Bilamizki, badiiy asarlarni talqin etishda tilning imkoniyatlari nihoyatda beqiyos. Nutqda so'zdan o'rinli foydalanish, nutq uslublarining o'zaro aloqasi asar tilining jonli tarzda namoyon bo'lishini taqozo qiladi. Tavsiflanayotgan voqelikni yaxshi bilish, tildagi so'z ma'nolarini, uning nozikliklarini anglash, hikoya mazmunini ochib berishga imkon yaratadi. Hikoyada keltirilgan so'zlarning vazifasi estetik ta'sir etishdan iboratligi uchun so'zning turlicha qo'llanishi, tovlanishi, xilma-xil ma'nolarni ifodalashiga imkon yaratadi. Qamchibek Kenja ijodini kuzatar ekanmiz, so'z qo'llash, so'zga uslubiy bo'yoq berish xususiyatlarining o'ziga xosligiga guvoh bo'lamiz. Yozuvchi Andijon xalqiga xos go'zal qochiriqli so'zlar, sheva so'zlari, turli iboralardan ustalik bilan foydalanadi. Ayniqsa tahlil etayotgan hikoyadagi bolalarga xos bo'lgan so'z va gaplarning qo'llanilishi asarni qiziqarli bo'lishini ta'minlagan; *"Pul-boshqa gap, istagan paytingda xohlagan narsangni sotib olishing mumkin: qarmoq yo kamalakka rezinkami, pryanik yo muzqaymoqmi.."*, *"- O'g'irlik qilish yaxshimas-da, -dedim hamon ko'zlarimni javdiratib. - Odamni qo'li qaltiroq bo'lib qoladi"*.

Shuningdek, taqlid so'z va takrorlarning qo'llanilishi tasvirning yanada jonli aks etishiga zamin yaratadi. "Eski soat" hikoyasida ham soat tovushining o'nta o'rinda *"chiq-chiq, chiq-chiq, chiq-chiq"* shaklida keladi. Bu tovush hikoya boshida bolaga qanday yoqimli tuyilgan, agar shu soat uning qo'lida bo'lsa, sinfdoshlari orasida maqtanib turishlari ko'z oldiga kelgan bo'lsa, hikoya oxiriga borib, vijdon

azobini uyg'otuvchi zambarak kabi yomon ta'sir qiladi. Hattoki, bu tovush qulog'ini teshib yuboray deydi, haqiqiy dardisar bosh og'rig'iga aylanadi.

Yozuvchi hikoya davomida kitobxonga aql o'rgatmaydi, va'zxonlik qilmaydi yoki tushuntirib bermaydi, shuningdek, hikoya qahramonlarini ham tanishtirmaydi. Misol uchun, bosh qahramonning ismi Avaz ekanligi Tuyg'un tilidan ochiqlanadi: *"-Avaz, sho'pir uzoqqa ketganga o'xshaydi, o'maramizmi?"*. Mohiyat va g'oya obrazlar nutqi, ularning kechinmalari, xatti-harakatlari, ular duch keladigan ziddiyatlar qarshisidagi kechadigan jarayonlar orqali tasvirlanadi. Bu esa Qamchibek Kenjaning mahoratli yozuvchi ekanini ko'rsatadi.

Ko'rishimiz mumkinki, yozuvchi hikoyaning xulosasini o'quvchiga havola etadi. Hikoya so'nggida: *"Anchadan keyin ko'zimni ochdim, quloqlarimdan barmoqlarimni oldim. Soat hamon chiq-chiqlar, faqat endi uning ovozi qayerdan kelayotgani menga noma'lum edi. U tovush haligacha quloqlarimdan ketmaydi. Chiq-chiq, Chiq-chiq..."* Yozuvchi kitobxonni ham tafakkur qilishga, asarni tahlil etishga undaydi. Bu esa badiiy adabiyotning vazifasi bo'lgan inson dunyoqarashini oshirish, tafakkurni yuksaltirishni yozuvchi tomonidan amalga oshirilganini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qamchibek Kenja. Bir kecha-ming kecha. T., "O'zbekiston", 2018.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. -T., "O'zbekiston", 2000
3. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. - T., "O'qituvchi", 1993.
4. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. - T., "Fan", 1982.